

Toshloq tumani axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmati



***Bir yodgorlik tarixi “ Garbobo “ yodgorligi haqida
ma'lumot.***

Kirish

Har bir xalq o'zining tarixiy xotirasi bilan barhayotdir. Bu xotira esa asosan o'lkashunoslik orqali avloddan-avlodga o'tadi. O'lkashunoslik yoshlarni o'z xalqining qadimiy yodgorliklari, milliy bayramlari, urf-odatlari, an'analari, xalq og'izaki ijodi, toponimik nomlari bilan tanishtirish orqali insoning madaniy ongini boyitadi. Toshloq tumani axborot-kutubxona markazi o'quvchilarga tumanimizdagi mavjud yodgorliklar haqida ma'lum tayyorlangan. Siz aziz kitobxonlar o'zlaringa kerakli ma'lumotlarga ega bo'lasizlar.

Garbobo.

Qo‘qon xonligi arxiviga doir hujjatlarda Karbobo nomi bilan tilga olinadi. 1872 yilda yozilgan hujjatlardan birida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Karbobo qishlog‘ida xo‘jalar xonadoniga mansub aka-uka Shirinxo‘ja va Ahmadxo‘jalar istiqomat qilganlar. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Karbobo qishlog‘ida yashovchi xuddi shunday xo‘jalar xonadoni vakillaridan yana biri Norxo‘ja bo‘lib, Ikromxon to‘ra to‘qsobaning iltimosiga binoan 1874 yili soliqlardan ozod etilgan. Shuningdek, Karbobo qishlog‘ida o‘z davrining mashhur zodlaridan biri Eshonxon to‘raga taalluqli yer mulklari mavjud bo‘lgan. Karbobo qishlog‘ida XIX asrning o‘rtalarida Domulla Abdurahmon qozi madrasasi va Xoja Kalonto‘ra masjidi uchun vaqf yerlari ajratilgan. 1873 yilda Sulton Murodbek tomonidan Mulla Muhammad Olim Sarkar nomiga berilgan hujjatda mazkur vaqf yerlarini xiroj olinmasligi ta’kidlanadi.

Karbobo qishlog‘ida xon qo‘shinida xizmatda bo‘lgan mulozimlariga ham yerlar bo‘lib berilgan. Masalan, 1874 yilda Sulton Murodbek tomonida Mulla Muhammad Shokirga berilgan hujjatda Karbobo qishlog‘idagi to‘pchilarga tegishli bedazorlar tanobona ozod qilinganligi takidlanadi. 1909 yil keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Karbobo (Garbobo) qishlog‘i Marg‘ilon uyezdining Yakkatut volosti tarkibiga kirgan bo‘lib, unda jami 686 nafar aholi istiqomat qilgan.



Garbobo (Karbobo) ziyoratgohi.

Garbobo (Karbobo) qishlog'i qabristonida Garbobo ziyoratgohi joylashgan. Bu haqida Mansurxo'ja Xo'jayev “ Shermuhammadbek qo'rboshi “ nomli asarida jumladam quydagilarni keltiradi.

“ Marg'ilonning Toshloq deparasida, uning cho'lga ulanib ketgan eng chetida joylashgan bu qadimiy qishloq bir tarafi ekinzorlar, boshqa tarafi esa qamishzor va changalzorlar bilan o'ralgan, o'sha davr o'lchami bo'yicha o'rtacha bir aholi maskanidir. Qishloqning qadimiyligini uning yaqinida joylashgan qal'a va rabotning tekislanib, deyarli yer bilan bitta bo'lib ketgan vayrona qoldiqlaridan bilsa bo'ladi. Uning atrofida Shilva, Ramazon, nariroqda, Yakkatut, Bo'ston, Yakkabed va boshqa qishloqlar joylashgan.

XX asr boshlarida G'orbuva rasmiy jihatdan Farg'ona viloyati Marg'ilon uyezdi, shahar atrofi uchastkasining Yakkatut volostidagi Ramadon qishloq tarkibida turgan. Asrning boshlarida aholi ro'yxatiga ko'ra, G'orbuvida 172 xonadon mavjud bo'lib, 132 xonadon o'z xususiy yer mulkiga ega bo'lgan, qirq xonadon esa yersiz hisoblangan. Aholisi 686 kishidan iboran bo'lib, shundan 393 nafari erkak, 293 nafari ayol edi. Qishloq Marg'ilon shahridan 20 chaqirim, Gachakova temiryo'li stansiyasidan 16 chaqirim masofada choylashgan. Ushbu mashhur qishloq nomi milliy ozodlik harakati aks ettirilgan barcha manbalarda uchraydi. Uni tarixchi va yozuvchilarimiz Karbobo, Garbobo tarzida qalamga olib keldilar. Xalqda esa u G'orbuva degan nom bilan mashhur. Rus tilida yozilgan manbalarda bu tilda “ G' ” tovushi bo'lmaganligi tufayli Garbobo shaklida yoziladi.

Qishloqdan bir oz narida shu deparadagi uch-to'rt qishloq uchun umumiy hisoblangan katta bir qabiriston bor. Uning o'rtasida bir tepalik etagida G'orbuva ziyoratgohi choylashgan. Covet hokimiyati yillari edi. Xizmat safari yoki sayri-sayohat yuzasidan Leningradga har borganimda u yerlik tanish bilishlarimni bir-bir yo'qlab qo'yar edim. Navbatdagi safarlarimni birida harbiyda birga xizmat qilgan bir zobit do'stimnikida bir-ikki soat mehmon bo'ldim. U sidqidildan qilgan xizmati uchun Leningrad harbiy okrugi shtabiga o'tkazilgan edi. Uning xotini sharqshunos bo'lib, tasavvuf tarixi bilan shug'ullanar ekan. Choy ichib o'tirganimizda Lyudmila Borisovna (xotinining ismi sharifi shunday edi) savol berib qoldi:

Marg'ilon shahri siz yashaydigan shahardan uzoqmi?

Yo'q unchalik uzoq emas, eng yaqin yo'ldan yurilsa yetmish kilometr ham chiqmaydi.

O'sha Marg'ilon yaqinida Garbobo degan joyni eshitganmisiz ?

Ha, u choy haqida ko'p eshitganman va o'qiganman. U joy “bosmachilar” urushi davrida (U vaqtlarda milliy-ozodlik kurashi degan ibora har joyda ham tilga olinavermas, faqat eng yaqin, ishonchli do'stlar davrasidagina pichirlab aytilardi) antisovet

kuchlarining yirik qarorgohi bo'lgan. Nima, siz ham bu urush tarixi bilan qiziqib qoldingizmi? Bilishimcha, sohangiz boshqa edi shekili?

Yo'q-yo'q, joyning "bosmachilar" urishi davriga iod tarixi meni qiziqtirgani yo'q. Bilasizmi, men o'zim universitetda ishlasam ham, ishim yuzasidan arxivlar, ilmiy kutubxonalarda ko'p bo'laman. Saltikov-Shchedrin nomli xalq kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari bo'limida chamasi o'ntacha jildda (papkada) yirtiq-sirtiq qog'ozlar saqlanadi. Ular turli kitoblardan tushib qolgan alohida varaqlar, bir qismi yirtilgan turli hujjatlardir. Sharqshunoslarning ba'zilari bu papkalarga hazil tariqasida "turfa qog'ozlar papkalari" deb nom qo'yib olganlar, shunisi qiziqki, asosiy jamg'arma materiallarini shu papkalardan chiqib qoladi. Shu tufayli sharqshunoslar o'z ishlari jarayonida, albatta ularni ham ko'zdan kechirib ko'yadilar. Men ham shu papkalarni titib o'tirib, Qo'qon xonlarida bo'lmish Norbo'tabekning bosh baziri Xonxo'ja tomonidan Marg'ilon viloyati Toshloq deparasidagi G'orbuva qishlog'i yaqinida choylashgan Xoja Pirmuhammad Qalandar mozoriga berilgan vaqf mulki haqidagi "Vaqfnoma" deb nomlanadigan hujjatning bir parchasini topib oldim. Hujjat chamamda to'rt buklangan holatda qayerlardadir uzoq saqlangan. Vaqt o'tishi bilan buklov chizig'idan qirtilib, mazkur papkaga uning to'rtidan bir qismi tushib qolgan. Qalandarlik sohasi mening ilmiy ishingga yaqin bo'lganligi uchun bu qalandarlarning shaxsi haqida ma'lumot izladim. Aylanib-o'grilib, kichik, uzuq-yuluq ma'lumotlarni yani shu papkalarining biridan topdim. Ma'lumki, Turkiston va aeronda avliyolar, zohidlar faoliyatiga bag'ishlangan umumiy nomi "Tazkiram ul avliyo" (avliyolar haqida yodnomalar) yaratilgan. Bu asarlarning ayrim varaqlari ham mazkur parishon qog'ozlar papkasiga tushgan ekan. Ushbu varoqlarning birida Xoja Pirmuhammad Qalandar shaxsi haqida kichik bir ma'lumot bor ekan. Ma'lum bo'lishicha, Xoja Pirmuhammad XVIII asrning birinchi yarimida Farg'onada yashab o'tgan bo'lib, qalandarlik jubbasini tashlamagan ekan. U XVIII asrning qirqinchi yillarida qalmoq bosqinchilari bilan bo'lgan janglarda asr olinib qatl qilingan ekan...

Garchi, mozor rasman "Xoja Pirmuhammad Qalandar mozori" deb nomlansa-da, xalq lafzida, bu sun'iy g'or ichida avliyoning qabri mavjudligintufayli "G'orbobo" deb atalgan bo'ladi..."

Garbobo ya'ni Karbobo bilan bog'liq yana bir rivoyat taniqli journalist Alisher Bek hamda Azim Daryolar ham muallifligida chop etilgan Turkistondagi milliy ozodlik harakatiga doir risolada quydagicha keltirib o'tilgan:

" Toshloqning Qumaqir qishlog'i deparasida yeti og'a-ini aziz avliyolar o'tgan. O'sha yerda ulardan uchtalari – Chakkatomlar mozor bobo, Sulton bobo va Karbobo mozor boboning daxmalari ziyoratgohga aylangan. Qolganlarini shu erlik keksalarham eslay olmaydilar. Karbobo azizlar yotgan joyning atrofida uylar qurilib, keyinchalik bu yer Garbuva qishlog'i deb nomlana boshlagan. Avliyo dada attor bo'lgan ekanlar. Bir juvon savdo qilayotib ehtiyotsizlikdan yel chiqarib qo'yadi. U otadan hicholat bo'lib, loladek qizarganicha buyumlardan birini narxini so'taydi. Mozor bobo o'zlarini ataylab karlikka

solib juvonni hijolatlokdan qutqaradilar. Shu-shu nomlari Karbobo (keyinchalik o‘z Garbuva) azizlar sifatida e‘zozlanib keladilar.

Shu o‘rinda muhtaram o‘quvchilarimizda M. Xo‘jayevning “G‘orbuva” hamda Alisher Bekning “ Karbobo” rivoyatlarning qaysi biri haqiqatga yaqinroq? degan savol paydo bo‘lishi turgan gap. Chunki odatda o‘quvchiga qaysi bir rivoyat ko‘proq ta’sir etsa, albatta o‘shanga ishongisi va uni to‘g‘ri dep ishongisi keladi. Biz aynan shu savolni o‘zimizga bergan holda Garbobo mahallasidagi kekxa otaxonlarinim bilan suhbat o‘tkazdik.

Ma’lum bo‘ldiki, aholi o‘rasida G‘orbobo to‘g‘risidagi rivoyatni hech kim eshitmagan. Qolaversa, Karbobo yodgorligi hech bir davrda G‘orbobo nomini olmagan ekan. Shuningdek, Garbobo tepaligida g‘or izini ham uchratmadik. Garbobo bilan bog‘liq rivoyatga kelsak, unga ulug‘ avliyolarhayotida yuz bergan voqealar asas bo‘lganligi extimoldan holi emas. Chunki Karboboning atayin o‘zini eshitmaslikka olishi bilan bog‘liq rivoyat aslida atoqli shoir, mutafakkir va mutasavvir olim hazrati shayh Farididdin Attorga nisbatan berilganligi tarixdan ma’lum. Ammo Farididdin Attor o‘zining “Tazkirat ul-avliyo” asarida bu rivoyatni Sharqning buyuk so‘fiy shayxlardan biri Abu Abdurahmon Hotam Asam Yusuf o‘g‘liga (852 yilda vafot etgan) nisbat bergan holda quyidagilarni himoya qiladi:

“ Shayx Hotami Asam, qoddasallohu surrahu, Balx shayxlarining ulug‘laridan edi. Junayit (Bag‘dodiy) kabi aziz uning haqida: “Bul zamonning sidiqqi Hotami Asamdir”, deb aytgan. Tasniflari bordir. Muborak qulog‘lari kar emas edi. Ammo Htami Asam deyishlarining sababi nshuki, bir kuni uning huzuriga bir narsani so‘rash uchun bir xotin keladi. Gaplashar ekan, g‘aflat bosib, u ayoldan yel chiqdi. Hotam o‘zini eshitmaganga oldi:

Balabdroq so‘zlagin, qulog‘im kar, eshitmayman – dedi, toki ul xotin xijil bo‘lmasin, uyalmasin. Bu orada xotin savolini baland ovozda so‘radi. Hotam javob berdi. O‘sha xotin eshitib malul (g‘amgin) bo‘lmasin deb, o‘n besh yil davomida Hotam o‘zini karlikka solib yurdi. Xotin oxiratga ravona bo‘lganidan keyinginabuni davom ettirishni lozim ko‘rmadi. Uni kar deyishlarini sasabi shu edi.”

Shayx Hotam Asam va Farididdin Attor to‘g‘risidagi maskur rivoyatni Garbobo qishlog‘idagi avliyu bilan bog‘liqligi masalasiga kelsak, bu rivoyatning aholi orasida jida mashhur bo‘lganligida deb qarash bizningcha maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Binobarin, Farg‘ona Ubays Qaraniy, boyazid Bistiniy, Abdulloh Ansoriy, Sulaymon Baqirg‘oniy, Shamsiddin Tabriziy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Alouddin Attor, Xoja Ubaydullo Ahror singari tasavvuf tariqatining atoqli namoyandalari nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar va ular to‘g‘risidagi rivoyatlarning mavjudligi shu vaqtga qadar ko‘plab munozaralar savollarga sabab bo‘lgan. Zotan, Farg‘ona vodiysida mazkur zodlar mozorlarining paydo bo‘lishi haqida hikoya qiluvchirivoyatlar bir muncha haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Biroq muqaddas joylarga mashhur so‘fiylarning nomlarinin berib ulug‘lash holati O‘rta Osiyoda qadimdan mavjud ekanligini nazarda tutsak, biz ushbu savolga javob berganday bo‘lamiz. Chunonchi,

Karbobo (Garbobo) ziyoratgohiga oid rivoyatlar keyingi tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarishga uchragan. Natijada Shayx Hotam Asam hamda Farididdin Attor nomi bilan bog'liq rivoyatlar mahalliy avliyoning nomiga ko'chganligi ehtimoldan holi emas.

Aytishlaricha, Karboboning asl ismi Xoja Vali bo'lib, yuqorida hikoya qilingan voqea tufayli Karbobo nomini olgan ekan. Kunlarning birida Karbobo uyiga qovun yuboradi. Uyiga kelgach ayoliga "Men yuborgan qovunni olb kelsangiz", deydi. Ammo ayoli Karboboga qovundan bir tilik ham qo'ymay yeb qo'yganliklarini aytadi. Shunda Karbobo " Bir tilik qovun olib qo'yishni ravo ko'rmagan ayol, ertaga o'lganimdan so'ng mening haqimga duo o'qirmidi?!" degan fikrni hayolida o'tkazib, ertasi kuniyoq bozor oldidagi katta yerni sotib olib bog' barpo etadi. Yillar o'tib bog' mevaga kirgach hosilini barchaga tekni ulasha boshlaydi. keyinroq esa bo'g'ni vaqf qilib beradi. Qachonki, dunyodan o'tgach Karboboni birinchi bo'lib o'zining bog'iga dafn etadilar. Bora-bora bu katta qabiristonga aylangan ekan.

Hozirda Karbobo (Garbobo) mozori mahalla qabiristonida joylashgan. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan asrning 80-yillarida Karbobo (Garbobo) mpzori o'zlarini ashaddiy ateist deb bilgan ayrim viloyat rahbarlari tomonidan buzib yuborilgan. Faqat mustaqillik davriga kelib ziyoratgoh yana qayta tiklangan. Garbobo qishlog'idagi ko'na tepalikni rivoyatlarda qadimgi Quva shahristonida hukumdorlik qilgan afsonaviy Qayqubod podsho nomi bilan bog'laydilar.

Avvalgi paytlarda bu tepalik (aholinuni deva deb ataydilar) atrofida to'rtta ko'l bo'lganini aytadilar. Rivoyatlarga ko'ra, Qayqubod podshosi odamlarga tuproq tashittirib, bu yerda o'zi uchun mahsus o'rda barpo qilgan ekan. Aholi orasidamazkur rivoyatlardan bu tepalikning naqadar qadimiy ekanligini anglash qiyin emas. Chindan ham qadimshunoslar ushbu tepalikni birinchi ko'rishdayoq Farg'ona vodiysidagi qadimgi arxeolog yodgorliklaridan biri sifatida e'tirof etishlariga shubha qilmaymiz. Chunki Garbobo arxeologik yer ustida sochilib yotgan sopol parchalari orasidan miloddan avvalgi II asrdan milodiy II asrga mansub qizil angobli sopol idishlarning parchalarini toppish muammo emas. Zero, o'sha davrlarni o'ziga xos sopollari bu qizil angobli bo'lib, ular Farg'ona vodiysining sharqiy hududidan tashqari deyarli barcha hududda keng tarqalgan. Bu qadimshunos olimi N.G.Gorbunovanning (1927-2001) ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Bunday sopollar odatda charxda yasalar va kundalik ro'zg'orning deyarli barcha sohasida qo'llanilar edi (faqat oshxona idishlari kuchli olovga chidamli bo'lish uchun pishirilgan sopolni qayta ishlash yo'li bilan qo'lda yasalgan).

Garbobolik keksalarning xotiralariga tayanadigan bo'lsak, bundan 60-70 yillar muqaddam tepalikdan qadimgi zina qoldiqlarini ham uchratish mumkin bo'lgan. Ayniqsa, qabr ko'vlash baqtida sopol idishlarning uchrab turishi o'sha paytlarda hech kimni ajablantirmagan. Ushbu ma'lumotlar o'quvchilarda agar Garbobo yodgorligi qadimdan mavjud ekan, dastlabki davrlarda tepalik qanday vazifani bajargan degan savolni keltirib

chiqariah tabiiy. Biz bu savolga javob sifatida qadimshunos olim, akademik A. Muhammadjonovning quydagi fikrlarni keltirib o'tmoqchimiz.

“Buyuk ipak yo‘li qadim zamonlardayoq Osiyo qit‘asini ko‘ndalangiga kesib o‘tib, ulkan Sharqni G‘arb mamlakatlari bilan bog‘lagan. Natijada, qit‘alararo bu karvon yo‘li bo‘ylab yashagan xalqlarning o‘zaro muloqat va tijoratlari kengayib, iqtisodiy va madaniy hayoti yuksaldi. Bu savdo yo‘li uzra yangi-yangi shaharlar paydo bo‘ldi, shaharlarda esa hunarmandchilik unib-o‘tdi. Ilk o‘rta asrlarda xalqaro savdo-sotiqni olib boruvchi va uni boshqaruvchi savdogarlar ahli kashkashon nomi bilan shuhrat topdi. Anvoyi hunarmandchilik mahsulotlarini uzoq o‘lkalarga eltuvchi minglab tuya karvonlari yo‘llarga tizildi. Bunday sahro kemalarini boshqaruvchi karvonboshilaru tuyakashlar, paykoru xizmatchilar guruhi isgga kirishdi. Minglab chaqirimga cho‘zilgan, tog‘ daralari oralab, qorli baland dovonlarni oshgan va suvsiz bepayon dashtu sahrolarni kesib o‘tgan bu uzoq savdo yo‘llari bo‘ylab qator-qator karvonlar, sayyohu daveshlarning, turli mamlakatelchiyu vakillarning muttasil qatnovini ta‘minlash maqsadida qit‘alararo yo‘l uzra son-sanoqsiz qo‘noqlar, ravoqlar, xonaqohlar, dashtlarda esa sardobalar – gumbazli hovuzlar qurilib, daryo kechuvlariga solar o‘rnatilgan. Shaharlarda katta–kichik karvonsaroylar va mehmonxonalar qad ko‘targan.

Afsuski, qadimda turli mamlakatlarni bog‘lagan ko‘hna savdo yo‘lida bino qilingan imorat va inshoatlarni ko‘pi asrlar davomida vayron bo‘lib, bizgacha ulardan yassi tepalar shaklidagi arxeologik yodgorliklargina yetib kelgan.

Shunday ekan, Garbobo tepaligi qadimda Farg‘ona vodiysidan o‘tgan Buyuk ipak yo‘lidagi savdo karvonlari to‘htaydigan va ularni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi manzilgohlardan birining vazifasini bajargan. Zero, Toshloq hududidagi Zangushtepa, Arabmozortepa, Qilich Burhontepa, Varzaktepa, Tepa azizlari singari yodgorliklar ham huddi Garbobo tepaligi kabi Buyuk ipak yo‘lining qo‘nalg‘asida joylashgan bo‘lib, qadimdan savdo-sotiqning, madaniy aloqalarining uyg‘unlashuvida muhim ro‘l o‘ynagan inshoatlar sifatida o‘z davrida mashhur bo‘lgan. Bunday qadimgi tepaliklarni o‘rganish tariximizni va madaniyatimizni yo‘qolib ketgan zarvaraqlarning tiklab, o‘tmishimizni bilish uchun naqadar zarur ekanligi bugungin kunning muhim davr talablaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Aytish joyizki, hozirgi kunga qadar tahminan 3-4 gektardan ziyod maydonni egallab turgan Garbobo arxeologik yodgorligidan aholi qabriston sifatida foydalanib keladi. Bu yer SHilva, Garbobo, Shakar (Bo‘zalar), Nayman bo‘ston singari qishloqlardan mayyitni olib krlib dafn etishdi.

Toshloq tumanidagi “Garbobo tepa” arxeolog yodgorligi

Nomi	Garbobo tepa	
Muhofazaga olinadigan obyekt turi	Tepalik	
Manzili	Toshloq tumani Istiqlol MFY	
Qurilgan vaqti (asr, yil)	I-X asr	
Foydalanuvchi	Mahalla	
Maydoni	4145,0 kv.m	
Kadastr hujjatlarining mavjudligi	Yo‘q	
Muhofaza xududi	Qishloq chetida	
Unga qo‘yilgan belgi	Muhofaza belgisi mavjud	
Hozirgi kundagi texnik holati	Yaxshi	

Foydalanilgan adabiyotlar.

94(575.1)

A 15

1.Н. Абдулаҳатов . Тошлоқ тарихидан лавҳалар.— Т.: << Янги аср авлод >> ,
2011. 332 бет.

Mazkur kitob Toshloq tumani qishloqlari tarixi va undagi muqaddas ziyoratgohlar
hamda ular bilan bog‘liq xalqona qarashlar haqida hikoya qiladi.

Tuzuvchi:

Axborot-bibliografiya xizmati rahbari:

M. Tojiumarova